



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Dilafro'z Haydarova

Navoiy viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi katta o'qituvchisi

ZAMONAVIY O'QITUVCHINING KASBIY KOMPITENTLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Annotatsiya: Maqolada bugungi kun o'qituvchisining kompetentligi, yosh o'qituvchilarga tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, kreativlik, motivizatsiya, kasbiy bilimdonlik.

Аннотация: В статье представлена компетенция учителя сегодняшнего дня, рекомендации молодым педагогам.

Ключевые слова: Компетенция, креативность, мотивизация, профессиональный интеллект.

Annotation: the article presents the current teacher's competency, recommendations to young teachers.

Key words: Competence, creativity, motivization, professional intelligence.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 23-avgustda xalq ta'limi tizimi xodimlari bilan bo'lgan telemuloqotda bugungi yoshlar tarbiyasiga e'tibor va ularga zamonaviy bilim berish, bu borada o'z ustida doimo ishlab, yangiliklar yaratadigan o'qituvchilarni shakllantirish masalasiga e'tibor berdi. Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri o'z kasbiy kompetentligi va intellektual salohiyatining yuqoriligi, sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishidir. Ta'lim sifatini va samaradorligini takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi



Prezidentning bir qator qarorlari va farmonlari qabul qilinib, ta'lim mazmunini, ta'lim tizimini modernizatsiyalashda axborot texnologiyalari yutuqlaridan keng foydalanish zaruriyati tug' ilmoqda. O'quvchilarni zamon talablari asosida tarbiyalash va ularga jamiyat taraqqiyoti bilan bir qatorda shakllanib borayotgan fanlar asosida nazariy va amaliy bilim berish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa o'qituvchilar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Bugungi kundagi o'qituvchi o'zi dars beradigan fanning mohir ustasi, bilimdoni, ta'lim-tarbiya jarayonidagi har qanday muammoning yechimini topa oladigan, o'z ustida doimo ijodiy ishlab, yangiliklar yarata oladigan, o'quvchilar qalbiga yo'l topa oladigan, bir so'z bilan aytganda zamon talabiga javob bera oladigan mutaxassis bo'lishi lozim. Shuning uchun bugungi kunda biz o'qituvchi kompetentligi haqidagi fikrlarni takror va takror tilga olmoqdamiz.

2019-yil 23-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev respublikamiz xalq ta'limi xodimlari bilan qilgan muloqotida "...bugungi ustoz shogirdlarini o'z orqasidan ergashtira olishi lozim, agar ergashtira olmasa u ustoz emas," degan fikrlarni ta'kidlab o'tdilar. Demak, bugungi ustoz o'z shogirdlari oldida tashabbuskor, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib, har doim tetik, g'ayratli, o'z kuchi va imkoniyatlariga ishongan bo'lishi lozim. Kasbiy faoliyatga (kompetent) ega bo'lish uchun esa quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

- a) kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- b) yangidan-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- c) hamkorlik bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish.

Ish faoliyatini yangi boshlagan pedagoglarga quyidagi tavsiyalarni beramiz:

1. Xushmuomalalik
2. Faollik
3. Talabchanlik
4. Kuzatuvchanlik
5. Chidamlilik
6. Ijodkorlik




1-dars ssenariysi:

Har bir faoliyatni inson o'ziga ishonch bilan boshlasa, bu muvaffaqiyat yo'liga katta qadam tashlagan hisoblanadi. O'qituvchining tashqi ko'rinishi o'zini tutishi va nutqi katta ahamiyatga ega. O'quvchilar bilan til topishib olgan taqdiringizda ham oraliq masofani saqlay olishingiz kerak. Albatta tabassum haqida unutmang!!! Lekin shuni ham nazarda tutishingiz kerakki, dars ishlanmangiz oldindan aniq va mazmunli qilib tayyorlab



olinmagan bo'lsa, yuqorida aytib o'tilganlarning barchasi sizga yordam bermaydi. Demak darsga kirishdan oldin, yaxshi tayyorgarlik ko'rish va dars rejasini aniq tuzib olish kerak:



Darsning tanishuv qismida o'quvchilar o'zlarini tanishtiradilar. yaratishga va o'quvchilar nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

o'qituvchi va Tanishuv ijobiy muhit

Asosiy qismda esa, dars bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish lozim. Lekin shuni esdan chiqarmasligingiz kerak. Birinchi darsdan o'quvchilarni toliqtiradigan, ko'p vazifa berishdan saqlaning. O'quvchini darsdan zerikib qolish holatiga olib kelmang. Topshiriqlar berish jarayonida albatta faollashtiruvchi o'yinlardan foydalaning!!!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagogning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan nutqi", 2019-yil 23-avgust.
2. G'afforova G. O'qituvchining kasbiy kompetentligi bugungi kun talabi. Til va adabiyot jurnali 2017-yil № 4, 15 b.
3. Xudoyqulov X.J, Kenjaboyev A.E. Pedagogik modul o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. – T., 2018.